



IZOHLI LUG'ATLARDAGI TARIXIY TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: xosiyatabduqahhorova655@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995307>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mavjud izohli lug'atlardagi tarixiy terminlarning semantik xususiyatlari, leksik-semantik guruhlariga birlashadigan semalar va har qanday sohaga oid terminlar o'zining xususiyatidan kelib chiqib semantik maydon hosil qila olishi mumkinligi aks ettirilgan. Bundan tashqari, soha terminlarining turli mazmuniy guruhlariga birlashishi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: sohaviy terminlar, tarixga oid terminlar, tarixga oid tarixiy termin, semantik maydon, semalar, leksik-semantik guruhlar, mazmuniy guruh.

Abstract: This article shows the semantic features of the historical terms in the existing explanatory dictionaries, the terms that merge into lexical-semantic groups, and the possibility that the terms of any field can form a semantic field based on their characteristics. In addition, comments are made about the merging of field terms into different meaningful groups.

Key words: field terms, terms related to history, historical term related to history, semantic field, symbols, lexical-semantic groups, meaningful group.

O'zbek tilshunosligida turli soha terminlarining semantik xususiyatlari turli nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilingan. Tahlilga tortilgan ishlarning ba'zilarida terminlarni mazmuniy guruhlariga bo'lingan holatda, ba'zilarida esa, leksik-semantik guruhlariga birlashadigan semalar asosida yoritib berilgan. Bu borada tilshunos R.Safarovning fikricha, "Sistem leksikologiyaning taraqqiyot bosqichi so'zlarni tematik va leksik-semantik guruhlariga birlashtirib, ma'noni tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish bilan xarakterlanadi" [1.47].

Sohaviy birliklarni chuqurroq o'rganish, til lug'at tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida sohaviy leksikani mavzuiy guruhlar asosida tasnif qilishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Terminlar tasnifi muayyan davrdagi jamiyat tuzumi rivoji hamda fan darajasini aks ettirishi bilan ham muhimdir [2.92].

Hozirgi kunga qadar tarixga oid tarixiy terminlarning semantik xususiyatlari va tuzilishi yuzasidan deyarli tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu soha terminlari ijtimoiy-siyosiy terminlar ichida tadqiq qilinib, ba'zi semantik xususiyatlari yoritilgan. Bu borada ijtimoiy-siyosiy sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib, terminlarni tizimlashtirish soha terminologiyasi va leksikografiyasining modelini yaratishga imkon beradi.



Jumladan, M.Abdiyev tildagi har bir soʻz va termining soha ichida umumlisoniy va adabiy nutq bosqichlarida xilma-xil paradigmatic munosabatlarga kirishishini, ularning esa yuqori bosqichdan boshlab quyi bosqichgacha sistem xarakter kasb etishini taʼkidlaydi [3.].

Bizningcha, tildagi har bir soʻz oʻzining sistem-struktur tabiatiga koʻra, eng kichik mikrosistemalaridan tortib, to makrosistemalargacha boʻlgan strukturasi oʻz ichiga qamrab oladigan eng yirik paradigma-lugʻat tarkibigacha boʻlgan maydonlarga bevosita tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Tilni tadqiq qilish jarayonida “semantik maydon” tushunchasi diqqatimizni tortdi. Bu termin tilshunoslikka aniq fanlardan kirib kelganligini taʼkidlash lozim.

Maydon nazariyasini Yevropa tilshunosligida I.Trir, L.Veysgerber, V.Porsig, G.Ipsen, Y.Yolles, F.Darizeyf, V.Vartburg,, rus tilshunosligida G.Shchur, Yu.N.Karaulov, A.A.Ufimseva, V.V.Morkovkin, S.E.Nikitina, Oʻzbek tilshunosligida M.Abduvaliyev, H.Hojiyev, A.Sobirov kabi olimlar atroflicha oʻrganib chiqishgan.

Tilshunos olim Yu.Karaulov lugʻat tarkibining turli sohalarni quyidagicha guruhlariga ajratish taklif qilinadi :

- semantik maydon;
- leksik-semantik guruh;
- mazmuniy guruh;
- sinonimik qator;
- onomaseologik guruh.

Rus tilshunosi I.V.Sentenberq ham tilning leksik-semantik sistemasida iyerarxiyaning semantik munosabatida mavjud quyidagi leksik-semantik paradigmalar ajratilishini taʼkidlaydi:

- leksik-semantik maydon;
- leksik-semantik guruhlar;
- mazmuniy qatorlar;
- koʻp maʼnoli soʻzlar;
- sinonimik, antonimik qatorlar, konversivlar [4.314].

Maʼlumki, leksik birliklarning mazmuniy va leksik-semantik xususiyatlari semasiologiyaning eng muhim vazifalaridandir. Mazmuniy tuzilish esa leksik maʼno, maʼno ottenkasi hamda hissiy-ekspressiv ottenkani oʻz ichiga oladi [5.57].

Demak, har qanday sohaga oid terminlar oʻzining xususiyatidan kelib chiqib, semantik maydon hosil qilishi mumkin. Ammo hamma sohalarda ham bunday boʻlmaydi.



Tadqiqotchi O'. Saidov ish yuritish terminlarini 15 ta mazmuniy guruhga bo'lib o'rganadi. Tadqiqot ishida *tar.pometa* ostida berilgan *vazir* so'zini ijtimoiy-siyosiy ma'noga ega shaxs otlarini atovchi birliklar semasiga birlashishini aytadi [6.78].

VAZIR [a.vazir, ministr] *1 tar.* O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq davlatlarida, jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devoni) boshlig'i. Saroy vaziri noiloj bosh egib, farmoni oliy hozirlagani chiqib ketdi. M. Osim, Karvon yo'llarida. Vaziri a'zam, Ulug' vazir, vazirlar boshlig'i. O'rta asrlarda hukumatning oliy idoralari boshqargan yuqori mansabdagi shaxs — hozirgi bosh vazir.

2 Mamlakatda muayyan tarmoq faoliyatini boshqaruvchi shaxs. Sog'liqni saqlash vaziri. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri. *Respublika Moliya vazirining ta'kidlashicha, kelasi yilda aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlariga 65 mlrd so'm ajratiladi.* Gazetadan. Vazirlar Mahkamasi ba'zi mamlakatlar, jumladan O'zbekistonda, hukumatning nomi.

3 ko'chma. Oilada, jamoada boshlikdan keyingi mavqeda turuvchi shaxs. *Axloq-odobda ham o'rnak bo'la bil, Erlar bosh bo'lishsa, kuchli oila. Ro'zg'orda ayollar har doim vazir, Farzandlar ravnaqin o'ylaydi ona.* Gazetadan. *Ovulingning oqsoqoli mulla Fozil, O'ltirar bek oldida ikki vazir. "Oq olma, qizil olma"* [7.433].

O'rganishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'TIL-2 va O'TIL-5 tomli izohli lug'atida *tar.pometali* leksema-terminlar orasida turli tushunchalarni ifodalovchi mazmuniy guruhlar borligiga guvoh bo'ldik.

Yuqorida keltirilgan soha terminlarini tahlil qilish jarayonida tarixiy terminlarni quyidagicha mazmuniy guruhlariga bo'lishni afzal ko'rdik.

1. Shaxs otini hosil qiluvchi sotsial semali terminlar: *beka, bekach, bekvachcha.*
2. Narsa otini hosil qiluvchi tushunchalarini bildiruvchi terminlar: *manjaniq, chachvon, baydoq, gurzi, darparda, shashpar, zunnor, kunda.*
3. O'rin-joy otini hosil qiluvchi tushunchalarini bildiruvchi terminlar: *devonxona, dumaxona, obxona, yasovulxona, takyaxona, qorixona, qiroatxona, manzilgoh, daloyilxona.*
4. Kasb-korini bildiruvchi terminlar: *ko'nchi, bo'zchi, kosib, misgar, temirchi, qayroqchi.*
5. Davlat qurilishi va boshqaruviga oid terminlar: *xonlik, beklik, amirlik, konsullik.*
6. Ma'muriy-hududiy birlik nomlarini ifodalovchi terminlar: *daha, tuman, shu'ba.*
7. Faoliyat-jarayonni ifodalovchi terminlar: *alg'ov, egarchilik, zargarlik, ma'rifatchilik, maktabdorlik.*
8. Din va ilm-fan bilan bog'liq terminlar: *tafsir, xutba, xoja, falakiyot, qozi, , yasoq, tuzuk, mudarris, iydlilik.*



9. Belgi-xususiyatni ifodalovchi terminlar; *oliq-soliq, tamg'a*.
10. Soliq-to'lov tushunchasini ifodalovchi terminlar: *kapsan, zakot, ushr, boj qurma, o'lpon*.
11. Urug'-qabila nomlarini ifodalovchi terminlar: *Abbosiyalar, mang'itlar, barlos, bulg'orlar*.
12. Mansab, lavozimni ifodalovchi terminlar: *amin, noib, munshiy, mirza, bakovul*.
13. Diplomatika sohasiga oid tegishli terminlar: *konsul, elchi, konvensiya*.
14. Harbiy unvonlarni ifodalovchi terminlar: *tumanboshi, mingboshi, lashkar, yuzboshi, ellikboshi, erovul, sipoh* [8.55].

Xulosa qilib aytganda, terminlarni ishlatilishi va uni o'rganish avvalo, terminning xususiyatlari va tavsifini tahlilga tortish yuqori samaradorlikka olib keladi. Umuman olganda, o'zbek tilidagi tarixiy so'z va terminlarni aniq chegarasini belgilash, amaliy va nazariy xulosalar chiqarish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – Toshkent. O'qituvchi, 1996. – B.47.
2. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, метод, структура. _ КомКнига, 2006. -С.92.
3. Abdiyev M. Soha leksikasining sistem tahlili muammolari. T.: Meros, 2004.
4. Сентенберг И.В. Лексическая семантика английского глагола. – М.: Наука, 1976. – 314 с.
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959. – С 57.
6. Saidov O'.R. Ish yuritishga oid terminlar tizimi, semantikasi va leksikografik talqini: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt... diss. Toshkent, – 2023. – B. 78.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд.
8. Bekmuhamedov H. Tarix terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, – O'qituvchi, 1986. – B. 55.